

**TARIX FANINI O‘RGANISHDA TANGALARNING AHAMIYATI
(TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMANI MISOLIDA)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tangalarning tarix fanidagi ahamiyati xususida boradi. Toshkent viloyati Parkent tumanidan topib o‘rganilgan tangalarning tumanning tarixini yoritishdagi ahamiyati haqida dalillar yordamida bildirilgan fikr mulohazalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: tanga, avers, revers, Sanganak, Xo‘ja, Dilmurod Normurodov, Boysung‘ur Mirzo

**THE IMPORTANCE OF COINS IN THE STUDY OF HISTORY (ON THE
EXAMPLE OF PARKENT DISTRICT OF TASHKENT REGION)**

Abstract: This article discusses the importance of coins in history. It also includes arguments about the importance of coins found and studied in the Parkent district of Tashkent region in shedding light on the history of the district.

Keywords: coin, obverse, reverse, Sanganak, Khoja, Dilmurod Normurodov, Boysunkur Mirzo

**ЗНАЧЕНИЕ МОНЕТ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ (НА ПРИМЕРЕ
ПАРКЕНТСКОГО РАЙОНА ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Аннотация: В статье рассматривается значение монет в истории. Также приводятся рассуждения о значении монет, найденных и изученных в Паркентском районе Ташкентской области, в освещении истории района.

Ключевые слова: монета, аверс, реверс, Санганак, Ходжа, Дилмурод Нормуродов, Бойсункур Мирзо

KIRISH. Tarix fani dalillar va faktlarga asoslanadi, shuningdek, tarixchining xolis va asosli fikrlari ham tarixiy jarayonlarni qayta tiklashga yordam beradi. Turli qo‘lyozmalar va tarixiy ashyolarni soha mutaxassislari har tomonlama o‘rganishadi hamda ular asosida xulosalar berishadi. Bu tarixiy manbalarni tarixiy dalillar deb ham atash mumkin. Ularni asosan 2 guruhga bo‘lish mumkin: moddiy va yozma manbalar.

Ayrim tarixchilar xalq og‘zaki ijodi manbalarni ham uchinchi tur sifatida ta’kidlashadi. Ammo aksariyat og‘zaki manbalar bugungi kungacha yozma manbalar orqali yetib kelganligi uchun alohida turga ajratmaslik ham xato bo‘lmaydi.

Shunday tarixiy manbalar borki, u o‘z o‘rnida ham moddiy, ham yozma manba sifatida e’tirof etiladi. Ushbu manba - qadimiy tangalardir. Uning moddiy manba sifatida e’tirof etilishining bosh sababi, tangalarning aksariyati qimmatbaho metallar va ularning aralashmalaridan tayyorlanganligidadir. Insoniyat tarixi va madaniyatini o‘rganishda tangalarning ahamiyati katta. Chunki ulardan olinadigan ma’lumotlar shunchalik ko‘p qirraliki, ularning hammasini hattoki qayd qilib chiqish qiyin. Xususan, tangalar tarix, siyosat, iqtisod, san’atshunoslik, ideologiya, til, me’morchilik, savdo, xalqaro aloqalar vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha muammolarni yechishda moddiy manbalar orasida muhim rol o‘ynaydi. Tangalar bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarning sanasi, qanday shohlar hukmronlik qilganligini, ularning hukmronligi necha yil davom etganligini, davlat chegaralarini aniqlashda, tabiat, qishloq xo‘jaligi, qadimgi metallurgiya, qurol-yarog‘lar tarixini, kiyim-bosh formalarini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega ¹.

Shu o‘rinda asosli savol tug‘iladi: Xo‘sh bu tangalar qachon vujudga keldi? Xalq ommasiga qachon keng tarqaldi?

Tanga pullar qadimiy davrlarda, ya’ni mehnat taqsimoti paydo bo‘lib, ishlab chiqarish ancha rivojlangan, ishlab chiqargan mahsulotlari ishlab chiqaruvchining o‘z

¹ Sh. Pidayev. Tangalar davr ko‘zgusi. T.: "O‘zbekiston" 1984. B.3

ehtiyojidan ortib qolgan va uni boshqa mahsulotlar masalan, qishloq xo'jalik yoki qo'l hunarmandchilik mahsulotlari bilan almashtirish zaruriyati tug'ilgan bir davrda mollarning almashtirish ekvivalenti sifatida paydo bo'lgan².

ASOSIY QISM. Ta'kidlash joizki, o'z davrida muhim iqtisodiy va siyosiy vazifalarni bajargan tangalarning ahamiyati bugungi kunda ham juda yuqori. Misol uchun kichik bir tumanning tarixi yuzasidan tadqiqot ishi olib boriladigan bo'lsa, tabiiyki, ashyoviy va yozma manbalarga tayaniladi. Yozma manbalarning o'sha tuman uchun eng ahamiyatlisi aynan o'rganilayotgan davrda yozilgan kitob bo'lsa, ashyoviy manbalar orasida eng ahamiyatli manbalardan biri bu - tangalardir. Chunki tangalar ma'lum bir davrda mavjud bo'lgan savdo-iqtisodiy munosabatlar bilan bir qatorda, o'rganilayotgan manzilning qaysi davlat tarkibida bo'lganligi haqida ham ma'lumot beradi.

Misol uchun Toshkent viloyatida joylashgan Parkent tumanini olaylik. Parkent tumanida ham hayot izlari ancha qadimga borib taqaladi. Olimlarning aniqlashicha, paleolit davrlaridayoq tumanning bir qancha tog' va tog'oldi hududlarini o'zlariga makon qilishgan.

Davrlar o'tib, so'z yuritilayotgan hududda rivojlangan sivilizatsiya kirib borib shaharlashuv yuz beradi va tuman hududi o'z navbatida ma'lum bir davlatning tarkibiy qismiga aylanib boradi. Masalan, ayrim tarixchilar Qang' davlatining yozgi poytaxtini Parkent tumanining So'qoq qishlog'iga to'g'ri kelishi mumkinligini taxmin qilishgan. Albatta, o'z davrining yozma manbalari asosida turli taxminlar va xulosalar berishimiz mumkin. Ammo arxeologik manbalar, xususan, tangalar ushbu taxminiy xulosalarimizni aniqlashtirishga yordam beradi. Ya'ni, tumandan qachonki moddiy yoki ashyoviy manbalar, ayniqsa muhr va tangalar topib o'rganilsa, tarixiy taxminni aniq xulosaga aylantirish mumkin.

² I. To'xtiyev Tangalar tilga kirganda. T.: "Fan" 1989. B.3

Bugungi kungacha tumandan qadimgi davrga oid topib o'rganilmagan. Ammo o'rta asrlarga oid bir qancha tangalar topib o'rganilgan. Bu tangalar temuriylar va shayboniylar davriga oid tangalar deb taxmin qilinadi. Xususan, 2021-yil tumanning Sanganak qishlog'idan mis tangalar topilganligi jamoatchilik e'tiboriga ma'lum qilindi.

Fanlar Akademiyasi axborot xizmatining Kun.uz'ga ma'lum qilishicha, Parkent tumani Yangi Sanganak mahallasida yashovchi Imomali Boymaqov hovlisida limon uchun issiqxona tayyorlayotganda, tuproqlar orasidan ichiga mis tangalar solingan sopol ko'zaga duch kelgan. Fuqaro 2021 yilning 11 mart kuni tangalar haqida Temuriylar tarixi davlat muzeyiga xabar bergan ³.

Tangalarni o'rganish uchun Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi Dilmurod Normurodov jalb etiladi.



(1-rasm. XVI-XVII asrlarga oid deb tahmin qilingan tanga)⁴

Tanganing old tomoni: qavariq shakldagi 2 qatorli to'rtta to'rtburchakning bir-biriga tutashishi natijasida hosil bo'lgan kvadratli hoshiya-bezak ichiga arab harflaridagi zarb Samarqand (ضرب سمرقند – Samarqandda zarb qilingan) so'zi tushirilgan.

³ <https://kun.uz/53552762?q=%2Fuz%2F53552762>

⁴ Manba:Kun.uz sayti

Tanganing orqa tomoni: qavariq halqa ichidagi arab harflari ustidan qayta zarb urilgan⁵.

D.Normurodovning xulosalariga ko‘ra, ushbu tangaga o‘xshash tangalar XV asr oxirida temuriylar davrida Samarqand va Buxoro shaharlarida ham zarb ettirilgan. Tangada hukmdor nomining ko‘rsatilmaganligi XV asr oxiridagi Movarounnahrdagi siyosiy vaziyatning barqaror bo‘lmaganligi bilan izohlandi.

Mazkur tangalar tumanning temuriylar davri iqtisodiy hayotidagi o‘rni haqida xulosa berishimizga yordam beradi. Sababi, temuriylarning muhim savdo-iqtisodiy markazlarida zarb etilgan tanga namunalarining tumandan topilishi, o‘z navbatida Parkent tumanining ham bevosita iqtisodiy muhim zona bo‘lganligini ko‘rstadi..

Yana bir xabarga binoan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi Dilmurod Normurodov va Madaniy meros agentligi bosh arxeologi, Arxeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va arxeologiya ashyolari davlat katalogini yuritish boshqarmasi boshlig‘i Alisher Yarqulovlar hamda tangalar mahalla raisi, mahalla proflaktika noziri, uy egalari va arxeolog guvohligida sanoqdan o‘tkazilib ularning soni 939 ta ekanligi aniqlandi. Ular o‘rganish va davlatga topshirish uchun olindi⁶.

Tozalangan tangalardan ayrimlarining bir tomonida “zarb Toshkent ()” yozuvigina o‘qildi. Ikkinchi tomonini o‘qishning imkoni bo‘lmadi. Ammo, avvallari aniqlangan, aynan ularga o‘xshash tangalar bilan qiyosiy tahlil yangi topilgan xazinaning XVI asrning oxiri – XVII asrning boshlariga tegishli ekanligini ko‘rsatdi⁷.

Ushbu davrda o‘lkada shayboniylar hukmronlik qilgan davr ekanligini inobatga olsak, bu tangalarni shu sulola vakillari zarb etgan degan tahminni ham ilgari surish mumkin.

⁵ <https://academy.uz/uz/news/parkentdan-xvi-asrning-oxiri-xvii-asrning-boshlarigna-oid-xazina-topildi>

⁶ <https://academy.uz/uz/news/parkentdan-xvi-asrning-oxiri-xvii-asrning-boshlarigna-oid-xazina-topildi>

⁷ <https://oz.sputniknews.uz/amp/20220919/parkentdan-qadimgi-mis-tangalar-xazinasi-topildi---foto-28368417.html> H

XULOSA. Umuman olganda, tangalar o‘z davrida davlatning va hukumatning mavjudligini va o‘rni kelganda, uning qudratidan ham darak bergan. Zarbxonalar ham o‘z davrining eng rivojlanga shaharlaridagina mavjud bo‘lgan. Har bir davlatning asosiy tayanchi iqtisodiyot bo‘lsa, iqtisodiyotning asosiy tayanchi tovar-pul munosabatlari hisoblangan.

Parkent tumanida topilgan tangalar ham tumanning :

birinchidan, siyosiy jihatdan qaysi davlat tarkibida ekanligidan dalolat bersa,

ikkinchidan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan ham darak beradi.

Binobarin, tangalar tumanning temuriylar davlatining bir qismi bo‘lganligini arxeologik yo‘l bilan isbotlash bilan bir qatorda, tumanning qadimgi aholisining ijtimoiy holati ancha barqaror bo‘lganligini ham amalda ko‘rsatib berdi. Sababi, har ikki holatda ham tumandan kumush tangalar ko‘proq miqdorda topilgan. Va kumush tangalar aholining boy va kambag‘al qatlam oralig‘idagi qatlam vakillarida muomilada bo‘lgan. Aksariyat kundalik turmush tarzida oltin tangalar ishlatilinmaganligini ham e‘tiborga olish zarur.

Tumanning boy qadimiy tarixi borligi barchamizga ma’lum. Bu hududda paleolit davridan boshlab insoniyatning ajdodlari yashaganligini inobatga olib, eng qadimgi davr, antik va ilk o‘rta asrlar davriga oid tangalar ham topib, o‘rganilishiga ishonch bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Pidayev. Tangalar davr ko'zgusi. T.: "O‘zbekiston" 1984. B.
2. I.To‘xtiyev Tangalar tilga kirganda. T.: "Fan" 1989
3. A. SARIMSOKOV. "O‘rta Osiyo numizmatikasi" Iste'dod ziyo press" nashriyoti. Namangan, 2023.
4. S.Ayupova " Qadimiy tangalar moziydan sado" 2000-yi
5. M.E.Aminjonova "Qadimiy yodgorliklar qissasi" T.:1968
6. . Rahmatullayeva O., Salomov J. Numizmatika. Metodik qo‘llanma 2012.

7. Ernazarov T. Konev B “ Tangalar o‘tmish darakchilari” T.:1971
8. Fan va turmush “O‘zbekiston pullari” 1995-yil 5-6-sonlar
9. Rasulov. D. Buxoro amirligida zarb qilingan pullar // Moziydan Sado, 2 (38) 2008.
10. Rustamov M.T “Yordamchi tarix fanlari” Metrologiya (Maxsus kurs) 1998.